

BARQARORLIKDAN GLOBAL TEBRANISHLARGA: BUYUK BRITANIYA IQTISODIYOTINING CHORAK ASRLIK TAHLILI (2000–2025)

Xusanov Samandar Otajon o'g'li

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti 1-bosqich
talabasi xsamandar17@icloud.com

Annotatsiya: So'nggi chorak asr davomida Buyuk Britaniya iqtisodiyoti chuqur o'zgarishlarni boshdan kechirdi. 2000-yillarning boshidagi "Buyuk Barqarorlik" (Great Moderation) davridan so'ng, mamlakat uchta asimmetrik shok bilan to'qnash keldi: 2008-yilgi Jahon moliyaviy inqirozi, Brexit (2016–2020) tarkibiy o'zgarishlari va COVID-19 pandemiyasi. 2024–2025 yillarga kelib, Buyuk Britaniya barqaror inflyatsiya, ishchi kuchi yetishmovchiligi va savdo to'siqlari kabi o'ziga xos muammolarga duch kelmoqda, bu esa makro va mikro darajadagi barqarorlik mexanizmlarini har tomonlama tahlil qilishni talab etadi.

Kalit so'zlar: Buyuk Britaniya iqtisodiyoti; Brexit; Jahon moliyaviy inqirozi; Korporativ barqarorlik; AstraZeneca; Shell; HSBC; Makroiqtisodiy barqarorlik.

Annotation: Over the last quarter-century, the UK economy has undergone profound transformations. Following the era of the "Great Moderation" in the early 2000s, the country faced three significant asymmetric shocks: the 2008 Global Financial Crisis, the structural shifts of Brexit (2016–2020), and the COVID-19 pandemic. By 2024–2025, the United Kingdom is grappling with unique challenges such as persistent inflation, labor shortages, and trade barriers. These developments necessitate a comprehensive analysis of stability mechanisms at both macro and microeconomic levels to ensure long-term resilience.

Keywords: UK economy; Brexit; Global Financial Crisis; Corporate resilience; AstraZeneca; Shell; HSBC; Macroeconomic stability.

Аннотация: За последние четверть века экономика Великобритании претерпела глубокие трансформации. После периода «Великой умеренности» (Great Moderation) в начале 2000-х годов страна столкнулась с тремя масштабными асимметричными шоками: мировым финансовым кризисом 2008 года, структурными изменениями, вызванными Brexit (2016–2020 гг.), и пандемией COVID-19. К 2024–2025 годам Великобритания столкнулась с такими специфическими вызовами, как устойчивая инфляция, дефицит рабочей силы и торговые барьеры. Данные обстоятельства обуславливают необходимость всестороннего анализа механизмов макро- и микроэкономической устойчивости страны в современных условиях.



Ключевые слова: экономика Великобритании; Brexit; мировой финансовый кризис; корпоративная устойчивость; AstraZeneca; Shell; HSBC; макроэкономическая стабильность.

KIRISH

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi (Buyuk Britaniya) an'anaviy ravishda dunyodagi eng barqaror va ochiq iqtisodiyotlardan biri sifatida e'tirof etib kelingan. 2000-yillarning boshlarida mamlakat iqtisodiyoti "Buyuk Barqarorlik" (Great Moderation) deb ataluvchi davrni boshdan kechirdi. Bu davrda inflyatsiya past darajada saqlanib turdi, YAIM o'sishi esa barqaror sur'atda davom etdi. Biroq, so'nggi 25 yil davomida mamlakat ketma-ket uchta yirik asimmetrik shok ta'siriga uchradi, bu esa uning iqtisodiy modelini jiddiy sinovdan o'tkazdi. Birinchidan, 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz Britaniya bank tizimiga, xususan, "City of London" moliya markaziga qattiq zarba berdi. Bu davlat qarzining keskin oshishiga va keyingi o'n yillikda "Austerity" (tejamkorlik) siyosatining joriy etilishiga sabab bo'ldi. Ikkinchidan, 2016-yilda o'tkazilgan Yevropa Ittifoqidan chiqish (Brexit) bo'yicha referendum nafaqat siyosiy, balki chuqur iqtisodiy o'zgarishlarga olib keldi. Bu qaror iqtisodiy integratsiya va erkin savdo tamoyillariga asoslangan Britaniya iqtisodiyoti uchun tarkibiy o'zgarishlarni talab qildi. Uchinchidan, 2020-yilgi COVID-19 pandemiyasi va uning ortidan kelgan ta'minot zanjiri uzilishlari iqtisodiyotni Ikkinchi Jahon urushidan keyingi eng chuqur retsessiyaga olib kirdi. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, 2024-2025 yillarga kelib Buyuk Britaniya hali ham ushbu shoklarning oqibatlarini to'liq bartaraf eta olgani yo'q. Bugungi kunda mamlakat "stagflatsiya" (past o'sish va yuqori inflyatsiya) xavfi, mehnat unumdorligining pasayishi va yangi savdo hamkorlarini qidirish muammolari bilan to'qnash kelmoqda. Mazkur ishda biz makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni chuqur tahlil qilish orqali Britaniya iqtisodiyotining chidamlilik darajasini aniqlashga harakat qilamiz.

Buyuk Britaniya iqtisodiyotining o'zgarishi va ayniqsa Brexitning ta'siri akademik doiralarda keng muhokama qilinadigan mavzudur. Iqtisodiy integratsiya nazariyasiga ko'ra (Jacob Viner, 1950), bojxona ittifoqidan chiqish ikki xil samarani keltirib chiqarishi mumkin: "savdoni yaratish" (trade creation) yoki "savdoni chalg'itish" (trade diversion). Viner nazariyasiga ko'ra, agar mamlakat samaraliroq hamkorlardan (YI) uzoqlashib, kamroq samarali bozorlarga yuzlansa, bu umumiy farovonlikning pasayishiga olib keladi.

Dhingra, Ottaviano va Sampson (2017) o'zlarining mashhur tadqiqotlarida Brexit Buyuk Britaniya aholi jon boshiga daromadini uzoq muddatda 1.3% dan 9.2% gacha kamaytirishi mumkinligini ekonometrik modellar orqali bashorat qilishgan edi. Ular savdo to'siqlarining (tarif va notarif to'siqlar) oshishi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) oqimining kamayishi hisobiga iqtisodiy o'sish sekinlashishini ta'kidlashgan. Bizning



tahlilimiz ushbu nazariy bashoratlar 2024-yilgi real ma'lumotlar bilan qanchalik mos kelishini tekshiradi.

Shuningdek, "Productivity Puzzle" (Mehnat unumdorligi jumbog'i) muammosi ham adabiyotlarda keng yoritilgan. Haldane (2018) ta'kidlashicha, 2008-yildan beri Britaniyada mehnat unumdorligi o'sishi deyarli to'xtab qolgan. Bu "innovatsion turg'unlik" va kapital qo'yilmalarining yetishmasligi bilan izohlanadi. Boshqa bir guruh olimlar, jumladan Krugman, Britaniyaning moliyaviy sektorga haddan tashqari bog'lanib qolgani ("Financialization") real sektordagi muammolarni yashirib kelganini ilgari suradilar. Ushbu bo'limda ko'rib chiqilgan nazariyalar keyingi qismlarda keltiriladigan empirik ma'lumotlarni tushunish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotda miqdoriy tahlil usullari (quantitative analysis) ustuvorlik kasb etadi. Tahlilning ishonchliligini ta'minlash maqsadida xalqaro miqyosda tan olingan ma'lumotlar bazalaridan foydalanildi. Asosiy ma'lumot manbasi sifatida Jahon Bankining "World Development Indicators" (WDI) bazasi tanlandi. Bu baza makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning uzoq muddatli dinamikasini (2000-2024) kuzatish imkonini beradi. Tadqiqotda quyidagi asosiy indikatorlar tahlil qilindi:

- Yalpi Ichki Mahsulotning yillik o'sish sur'ati. Bu mamlakat iqtisodiyotining umumiy salomatligini ko'rsatuvchi asosiy barometrdir.
- Iste'mol narxlari indeksi (Inflyatsiya). Bu aholining xarid qobiliyati va makroiqtisodiy barqarorlikni baholash uchun zarur.
- To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) sof oqimi. Bu ko'rsatkich mamlakatning xalqaro investorlar uchun qanchalik jozibador ekanligini va Brexitdan keyingi ishonch darajasini anglatadi.
- Tashqi savdo aylanmasining YAIMdagi ulushi.

Bu iqtisodiyotning ochiqlik darajasini ko'rsatadi. Metodologik yondashuv sifatida "voqealar tahlili" (event study) va "trend tahlili" (trend analysis) qo'llanildi. Ya'ni, iqtisodiy ko'rsatkichlar uchta asosiy davrga bo'lib o'rganildi: inqirozgacha bo'lgan davr (2000-2007), inqiroz va tiklanish davri (2008-2015) hamda Brexit va pandemiya davri (2016-2025). Shuningdek, mikroiktisodiy darajada sifatli tahlil (qualitative analysis) o'tkazilib, uchta yirik kompaniyaning (AstraZeneca, Shell, HSBC) yillik moliyaviy hisobotlari (Annual Reports 2024) o'rganildi. Bu "top-down" yondashuvi makroiqtisodiy muhitning alohida firmalarga ta'sirini aniqlashga yordam beradi.

Makroiqtisodiy Dinamika Tahlili (2000–2025)

Buyuk Britaniya iqtisodiyotining so'nggi 25 yillik tarixi keskin tebranishlar bilan tavsiflanadi. Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, 2000-2007 yillarda o'rtacha yillik YAIM o'sishi 2.7% ni tashkil etgan. Bu davr barqarorlik va ishonch davri edi. Biroq, 2008-yilgi moliyaviy inqiroz vaziyatni tubdan o'zgartirdi. 2009-yilda YAIM -4.5% ga qisqardi, bu o'sha



vaqtgacha bo'lgan eng katta qulash edi. Iqtisodiyotning tiklanishi sekin kechdi va o'rtacha o'sish sur'ati inqirozgacha bo'lgan darajaga yetmadi.

Eng dramatik o'zgarishlar 2020-yilda kuzatildi. COVID-19 pandemiyasi tufayli joriy etilgan lokdaunlar va iqtisodiy faoliyatning to'xtashi natijasida YAIM -10.4% ga quladi. Bu G7 davlatlari ichidagi eng yomon ko'rsatkichlardan biri edi. Garchi 2021-yilda "tiklanish effekti" (rebound effect) hisobiga 8.7% o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, 2023 va 2024-yillar "turg'unlik" (stagnatsiya) yillari bo'ldi. 2024-yil yakunlariga ko'ra, o'sish bor-yo'gi 1.1% atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Inflyatsiya dinamikasi ham xavotirli tus oldi. 2015-yilda 0% ga yaqin bo'lgan inflyatsiya (deflatsiya xavfi), 2022-yilga kelib energiya narxlarining oshishi va ta'minot zanjiri uzilishlari sababli 11.1% gacha ko'tarildi. Bu 41 yillik maksimum edi. 2024-yilda inflyatsiya pasaygan (3.6%) bo'lsa-da, u hali ham Angliya Bankining 2% lik targetidan yuqori. Yuqori inflyatsiya aholining real daromadlarini kamaytirib, ichki iste'molni cheklamoqda. Bu esa iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri bo'lgan xizmat ko'rsatish sohasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Investitsiyalar va Tashqi Savdo Tahlili

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) Buyuk Britaniya iqtisodiyoti uchun hayotiy ahamiyatga ega. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2016-yilgi Brexit referendumi investitsion muhitda katta noaniqlik paydo qildi. Referendumdan oldin Buyuk Britaniya Yevropaga kirish darvozasi ("Gateway to Europe") sifatida qaralar va dunyodagi eng ko'p investitsiya qabul qiluvchi davlatlardan biri edi. 2016-yildan so'ng FDI oqimida keskin tebranishlar (volatility) kuzatildi. Ko'plab xalqaro kompaniyalar o'z ofislarini Amsterdam, Frankfurt yoki Parijga ko'chirishni boshladilar.

Jahon Banki ma'lumotlariga qaraganda, Brexitdan keyin Buyuk Britaniyaning savdo intensivligi (Trade Openness) pasayish tendensiyasiga ega. Garchi xizmatlar eksporti (ayniqsa, moliya va IT) bo'yicha mamlakat hali ham profitsitga ega bo'lsa-da, tovarlar savdosidagi defitsit (Trade Deficit in Goods) kengayib bormoqda. 2024-yilda joriy hisob taqchilligi YAIMning 3% dan oshishi kutilmoqda.

Yangi savdo bitimlari (masalan, Avstraliya va Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan CPTPP) Yevropa Ittifoqi bilan yo'qotilgan savdo hajmini qoplash uchun yetarli bo'lmayapti. YI bilan savdoda paydo bo'lgan yangi byurokratik to'siqlar, sertifikatlash talablari va bojxona tekshiruvlari eksport xarajatlarini oshirdi. Bu ayniqsa kichik va o'rta biznes (SME) uchun og'ir yuk bo'ldi. Natijada, Buyuk Britaniya eksportining raqobatbardoshligi pasaydi va importga qaramlik oshdi, bu esa "import qilingan inflyatsiya"ni keltirib chiqarmoqda.

Mikroiqtisodiy Tahlil: Korporativ Barqarorlik

Makroiqtisodiy darajadagi muammolar va turg'unlikka qaramay, Buyuk Britaniyaning yetakchi transmilliy korporatsiyalari hayratlanarli darajada barqarorlik va o'sishni



namoyish etmoqda. Bu iqtisodiyotdagi "dualizm" (ikki xillik) holatini yuzaga keltiradi: milliy iqtisodiyot qiynalmoqda, ammo global kompaniyalar gullab-yashnamoqda. Buni uchta gigant kompaniya misolida ko'rib chiqamiz.

AstraZeneca PLC (Farmatsevtika): Ushbu kompaniya innovatsiya va R&D (Ilmiy-tadqiqot) ga qilingan investitsiyalar qanday samara berishini isbotladi. Funt sterlingning qadrsizlanishi kompaniyaga foyda keltirdi, chunki uning daromadlarining katta qismi dollarda, xarajatlarining bir qismi esa funtda hisoblanadi. 2024-yilda kompaniya onkologiya va noyob kasalliklar bo'yicha dori vositalari savdosini oshirib, umumiy daromadini \$50 milliarddan oshirdi. Bu shuni ko'rsatadiki, yuqori texnologiyali mahsulotlar makroiqtisodiy shoklarga kamroq sezgir.

Shell PLC (Energetika): Global energiya inqirozi Shell uchun moliyaviy jihatdan eng muvaffaqiyatli davrlardan biri bo'ldi. Neft va gaz narxlarining oshishi kompaniyaga rekord darajada sof foyda olish va aksiyadorlarga katta dividendlar to'lash imkonini berdi. Shell hozirda ushbu mablag'larni "yashil energiya"ga o'tish strategiyasini moliyalashtirish uchun ishlatmoqda. Bu kompaniyaning nafaqat bugungi inqirozlardan foyda ko'rayotganini, balki kelajakdagi xatarlarga ham tayyorgarlik ko'rayotganini anglatadi.

HSBC Holdings PLC (Moliya): Angliya Bankining inflyatsiyani jilovlash uchun foiz stavkalarini 5.25% gacha ko'tarishi tijorat banklari uchun "oltin davr"ni boshlab berdi. HSBC bankining sof foiz marjasi (Net Interest Margin) oshdi, bu esa 2024-yilda soliqdan oldingi foydaning \$30 milliarddan oshishiga olib keldi. Bankning Osiyo bozorlaridagi faoliyati unga Britaniya iqtisodiyotidagi sekinlashuvdan himoyalash imkonini berdi. Xulosa qilib aytganda, global diversifikatsiya bu kompaniyalarning asosiy himoya qalqoni bo'lib xizmat qildi.

2000-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrni qamrab olgan ushbu empirik tahlil Buyuk Britaniya iqtisodiyotining murakkab transformatsiya jarayonini boshdan kechirayotganini ko'rsatdi. Tadqiqotimiz natijasida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, Buyuk Britaniya iqtisodiyoti "bardoshli, ammo zaiflashgan" (resilient but scarred). 2008-yilgi inqiroz va pandemiyadan keyin iqtisodiyot tiklandi, ammo Brexitning uzoq muddatli strukturaviy zarari (savdo to'siqlari va investitsiya pasayishi) iqtisodiy o'sish potensialini pasaytirib yubordi. Ikkinchidan, 2024-2025 yillarda kuzatilayotgan past o'sish va yopishqoq inflyatsiya "stagflatsiya" xavfini real ekanligini tasdiqlaydi. Uchinchidan, mikroiktisodiy tahlil shuni ko'rsatdiki, yirik biznes global diversifikatsiya orqali milliy muammolardan mustaqil rivojlanishga qodir, ammo kichik biznes va uy xo'jaliklari inqiroz yukini o'z zimmasiga olmoqda.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalar berilishi mumkin:





1. Investitsion jozibadorlikni tiklash: Hukumat siyosiy barqarorlikni ta'minlash va biznes uchun soliq imtiyozlarini joriy etish orqali yo'qotilgan xorijiy investitsiyalar (FDI) oqimini qaytarishi kerak.

2. Savdo aloqalarini optimallashtirish: Yevropa Ittifoqi bilan savdo to'siqlarini kamaytirish bo'yicha pragmatik kelishuvlarga erishish zarur, chunki boshqa bozorlar (AQSh, Osiyo) geografik jihatdan uzoqligi sababli YI o'rnini to'liq bosa olmaydi.

3. Mehnat unumdorligini oshirish: Infratuzilma va ta'limga davlat investitsiyalarini ko'paytirish orqali "Productivity Puzzle" muammosini hal qilish va innovatsion o'sishga erishish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. World Bank. (2025). World Development Indicators: United Kingdom Data (2000-2024). Washington, D.C.: The World Bank Group.

2. Dhingra, S., Ottaviano, G., Sampson, T., & Van Reenen, J. (2017). The costs and benefits of leaving the EU: trade effects. *Economic Policy*, 32(92), 651-705.

3. Viner, J. (1950). *The Customs Union Issue*. New York: Carnegie Endowment for International Peace.

4. House of Commons Library. (2025). *Economic indicators: Key statistics for the UK economy*. UK Parliament Research Briefing.

5. Office for National Statistics (ONS). (2025). *UK Trade and GDP estimates: October-December 2024*.

6. AstraZeneca PLC. (2024). *Annual Report and Form 20-F Information*.

7. Shell PLC. (2024). *Annual Report and Accounts 2024*.

8. HSBC Holdings plc. (2024). *Annual Report and Accounts 2024*.

